

YB

Yoshlarga ilm-fan, sport, san'at va madaniyat yo'nalishlari bo'yicha:

Mahalliy olimpiadalarda qatnashish xarajatlari: 1 million 200 ming so'mdan

Xalqaro olimpiadalarga: 12 million so'mdan ajratiladi

YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

49 (16502)
2022-yil, 23-iyul
shanba

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi](#)

[/yoshlarovozi.uz](#)

Kun mavzusi
2-bet

Issiqdagi "sovuq"
gaplar

Imkoniyating cheksiz!
5-bet

Furqat
kulol

Minbar
7-bet

"Halakaga
kalaka"



IMKONIYATLAR DAFTARI

Shu kunga qadar o'z bag'riga minglab yoshlarni olgan
daftardan hali hech bir yosh norizo chiqib ketmadi.

batafsil
4-bet

ISSIQDAGI “SOVUQ” GAPLAR

Soat ertalabki 08:00 bo'lishiga qaramay havo issiq. Kimdir quyosh nayzalariga soyabonni qalqon qilgan, kimdir bu vazifani bosh kiyimiga ishonib topshirgan. Birov ishga, boshqasi o'qishga shoshadi, baxtga qarshi daraxtning uchini qilt etib qimirlatadigan shabada yo'q. Aytgancha, shamol bo'lgan taqdirda ham qimirlaydigan daraxtning o'zi yo'q. Nafas rostlagani soya-salqin topa olmaysiz, yo'llar kal tog'amning kallasiday taqir.



me'yorlari bilan emas, balki tavsiyaviy mazmun-ga ega bo'lgan Sanitariya qoida va me'yorlarida aks ettirilishi yanada hayron qolaridir.

Ko'plab davlatlarda havo harorati tashqarida va ofisda necha darajaga yetganda ish to'xtatilib, xodimlarga javob berib yuborilishi, qanday havo haroratida ish vaqti qisqartirilishi aniq-tiniq belgilab qo'yilgan.

HARORAT +28,5 DARAJAGA YETSA...

Masalan, Belarusda jazirama issiq deganda havo harorati maksimal 30-34 daraja bo'lishi tushuniladi. Mamlakat mehnat qonunchiligiga ko'ra, kun bo'yi kompyuter yonida o'tiradigan ofis xodimlari xona harorati +28,5 darajaga yetganda bir soat kam ishlash, hatto havo harorati belgilangan me'yorlardan yuqori bo'lganda xodimlar rahbarini ogohlantirmasdan ham ish joyini tark etish huquqiga ega.

Eng qizigi, nafaqat issiqda, balki sovuqda ham belgilangan harorat me'yorlardan yuqori bo'lsa, xodimlar belgilangan imtiyozlardan foydalana oladi. Jumladan, yozda ofis ishchilari uchun harorat 28 darajadan yuqori bo'lmasligi kerak, aks holda ish vaqti qisqartirilishi mumkin. Masalan, yozda ofisda harorat 29 daraja issiq bo'lsa, ish vaqti 5 soatdan oshmasligi kerak. Agar harorat 32,5 darajadan yuqori bo'lsa va siz hushdan ketish xavfi tufayli endi ishlash olmayman, deb hisoblasangiz, ishlashdan bosh tortishingiz mumkin.

Bundan tashqari, Belarus Mehnat kodeksida ish beruvchi jazirama issiqda ish vaqtini o'zgartirishi, ya'ni ishni bir necha soat ertaroq boshlashi yoki tungi vaqtga ko'chirishi mumkinligi, xodimlar ochiq havoda ishlayotgan bo'lsa, issiqdan dam olish uchun maxsus xonalar bilan ta'minlashga majburligi mustahkamlab qo'yilgan. Ishchilar uchun maqbul harorat ish toifasiga, shuningdek, yilning davriga bog'liq.

ISH VAQTI 1-2 SOATDAN OSHMAYDI

Rossiya Federatsiyasi Mehnat kodeksining 212-moddasida issiq havoda ish standartlari belgilangan bo'lib, bu me'yorlar ish beruvchilardan xodimlarga normal va xavfsiz mehnat sharoitlarini ta'minlashni talab qiladi. Sanitariya me'yorlariga ko'ra, mavsum va xodimlarning jismoniy faolligiga qarab, +16 darajadan +25 darajagacha harorat maqbul hisoblanadi. Agar termometrlar belgilangan chegaradan yuqori bo'lsa, ish beruvchida bir qator majburiyatlarga yuzaga keladi.

Xususan, anomal issiq paytida ish beruvchi ish joylarini sovutkichlar bilan ta'minlashi, xodimlarga ishdan tanaffus qilish va dam olish imkoniyatini yaratishi, tushlik vaqtini uzaytirishi, qisqa muddatli haq to'lanadigan ta'llar berishi, vaziyatga ko'ra xodimlarga uydan ishlashga ruxsat berishi, ishlab chiqarish faoliyatini qisqartirishi kerak.

"Sanoat binolari mikroiklimiga qo'yiladigan gigiyenik talablar" deb nomlanuvchi sanitariya qoidalariga ko'ra, yozda ofisda ishlash uchun maqbul havoning harorati +23-25 daraja deb belgilangan. Agar termometr +28 dan +32 darajani ko'rsatsa, xodimning ish kuni qisqartiriladi. Ish vaqti +28,5 daraja issiqda 7 soatdan, +29 darajada 6 soatdan, +30 darajada 4-5 soatdan, +31 darajada 2-3 soatdan, +32 daraja issiqda esa 1-2 soatdan oshmasligi kerak. Agar xonadagi harorat 33 darajadan oshsa, qonunchilikka muvofiq, ishchilar umuman ishlamaslikka haqli. Homilador ayollar, 40 yoshdan katta va 25 yoshgacha bo'lganlar issiqda ishlashiga yo'l qo'yilmaydi.

Germaniyada ekstremal yuqori harorat kuzatilganda maktab va korxonalarda qo'shimcha dam olish kuni e'lon qilinishi mumkin. Jaziramada o'quvchilarning maktabga bormasligi federal darajada hal qilinsa, korxonada tashkilotlarda ish kunining bekor qilinishini kompaniya rahbariyati hal qilib qo'ya qoladi. Germaniya mehnat qonunchiligiga ko'ra, xodimlar ishlaydigan binolarda havo harorati +26 darajadan oshmasligi kerak. Agar xona harorati +30 darajadan oshsa, ish beruvchi xonani sovitish choralarini ko'rish shart.

Xo'sh, mamlakatimizda anomal issiq kuzatilganda ishchi-xizmatchilar qanday imtiyozlarga ega?

Mehnat kodeksining 219-moddasiga ko'ra, ishchi o'z salomatligi yoki hayotiga tahdid soluvchi ishni bajarishdan bosh tortishga haqli ekani belgilab qo'yilgan bo'lsa-da, +40 daraja issiqda ishlash olmayman, bu sog'lig'im uchun xavfli, deb aytib ko'ring-chi?!

Fikrimizcha, xalqaro tajribada bo'lgani kabi milliy qonunchiligimizda ham ofisda va ochiq havoda ishlash uchun o'rta xona me'yor belgilanishi, havo harorati necha darajaga yetganda ish vaqti necha soatga qisqarishi aniq belgilab qo'yilishi, qaysi darajadagi issiqda xodimlar ishga chiqmaslik huquqiga ega bo'lishi qonun bilan mustahkamlab qo'yilishi kerak. Bundan tashqari, jazirama ob-havoda ish beruvchilarning majburiyatlari ham qonun hujjatlarida aniq aks ettirilishi, bunga amal qilmaganlarga nisbatan javobgarlik belgilanishi zarur.

Shahruza SATTOROVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

Birovning gapi birovga yoqmaydi, atrofqa qarasangiz, hammada tushunarsiz kayfiyat, bo'g'imlarida og'riq, holsizlik, tez charchash, uyquchanlik, asabiylik kuzatiladi. Negaki havo harorati 30 daraja issiqdan oshgach tana sovib, yurak-qon tomir tizimi odatdagidan ko'ra ko'proq ishlashga majbur bo'ladi. Bunday paytda ko'p terlash oqibatida tomirlarda qon miqdori kamayib, miyaga kislorod yetib borishi qiyinlashadi.

Keyin... To'xtamay o'tib ketgan taksi ham, metroda yonimizda o'tirgan qiz ham, tiqilinch avtobusdagi konduktor xotin, o'qishdagi o'qituvchimiz ham asabimizga tegaveradi - bitta gap kam, ikkita gap ortiqchalik qiladi bunday paytda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda anomal issiq kunlar yiliga me'yordagi 15-30 kundan 25-40 kungacha ko'payibdi. Quyosh ham kundan kunga ko'proq qizdirayapti.

Bunday ob-havoda uydan chiqqing kelmaydi, derazalarga parda tutib, qorong'i xonada sovutkich tagida jon saqlash mumkin. Ammo ishlash, oila tebratish kerak. Tirikchilikning ko'chadagi issiq bilan ham, sening asablarining bilan ham ishi yo'q.

Afsuski, O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida ham havo harorati me'yordan oshganda ish to'xtatilishi yoki ish vaqti qisqartirilishi haqida aniq norma yo'q. Kodeksda "mehnat sharoiti" degan umumiy tushuncha ostiga aynan noqulay ob-havo bilan bog'liq holatlar umuman kiritilmagan, jazirama issiqda yoki o'ta sovuq ob-havoda ishlash tartibi haqida bir og'iz gap yo'q. Faqat Sanitariya qoida va me'yorlarida tavsiya berish bilan cheklanilgan: "Mehnat sharoitlari bo'yicha yilning issiq davrida ochiq maydonlarda bajariladigan ishlar 2003-yil 6-oktabrda qabul qilingan 0141-03-son Sanitariya qoida va me'yorlarining la-III toifasida belgilab qo'yilgan havo harorati darajasiga muvofiq bo'lishi lozim. Unga ko'ra, ochiq maydonlarda ish tashkil etilganda havo harorati 34,2°C-36,0°C dan yuqori bo'lganda inson sog'lig'i uchun o'ta xavfli hisoblanadi. Mazkur holatda ish beruvchiga xodimlar bilan kelishgan holda ish tartibini o'zgartirgan holda ish vaqtini kunning salqin vaqtlariga ko'chirib, ishni tashkil etishi maqsadga muvofiq bo'ladi".

Ochiq maydonda ishlashda havo haroratining xavfli chegarasi 36 daraja etib belgilanganiga qaramay, bu bajarish majburiyatini yuklaydigan Mehnat kodeksi yoki boshqa qonunchilik

QONUNLAR BUZISH UCHUN YOZILADIMI?

O'zbekistonda Twitter, Tik-Tok va VKontakte ijtimoiy tarmoqlari hamda Skype platformasi faoliyati hali hamon cheklanib kelmoqda. Bu – "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun talabi buzilayotgani bilan izohlanadi. Ya'ni 2020-yil 15-dekabr kuni qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunning 13-moddasi sharofati bilan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunda yangi – O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berishning alohida shartlari moddasi paydo bo'ldi.

Qonunga ko'ra, "Mulkdor va (yoki) operator O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma'lumotlariga axborot texnologiyalaridan foydalanish holda ishlov berishda, shu jumladan, internet jahon axborot tarmog'ida ishlov berishda ularning qisman O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda belgilangan tartibda Shaxsga doir ma'lumotlar bazalarining davlat reyestrda ro'yxatdan o'tkazilgan shaxsga doir ma'lumotlar bazalarida yig'ilishini, tizimlashtirilishini va saqlanishini ta'minlashi shart".

Sodda qilib aytilsa, qaysi ijtimoiy tarmoqning serveri O'zbekistonda joylashgan bo'lsa, foydalanish mumkinligi, agar bu ma'lumotlar bazasi boshqa davlatda bo'lgan taqdirda, barcha (serveri yo'q) tarmoqlar bloklanishi haqida so'z boradi. Xo'sh, qaysilarining serveri O'zbekistonda bor?


Hech qaysi – na Telegram, na Instagram, Facebook, Twitter,

Tik-tok, Odnoklassniki, WhatsApp, VKontakte. Yuqoridagilarning birortasining serveri O'zbekistonda mavjud emas. Shaxsga doir ma'lumotlar boshqa tomonning qo'lda saqlanmasligi sabab qonun ishlab chiqilgan ekan, nega barchasi uchun barobar emas? Ya'ni serveri O'zbekistonda bo'lmagan barcha tarmoqlar bloklanmayapti?

Tankka qarshi ketmon bilan jang qilishdek kulgili hol, albatta. Taqiqqa bir yildan oshgan bo'lsa-da, biror kimning Twitter yoki Tik-Tokdan foydalanmay qo'yganini ko'rmadik. Bu tarmoqlardan ko'pchilik, hatto taqiqlashga ovoz bergan rasmiylarning o'zlari ham foydalanyapti. VPN yurtimizda yaxshigina ommalashdi.

Qonun shaxsga doir ma'lumotlar o'z mamlakati hududida bo'lishini ta'minlash uchun qabul qilingan edi. Ammo VPN ishlatish orqali hamma o'z shaxsiy ma'lumotlarini global serverga uzatmoqda...

Toshkent xalqaro investitsiya forumida "The Economist" nashriyot kompaniyasi Joanna Lillis Tosh-



Hamma hozir qonun yozadigan bo'lib ketgan, chunki qonunni bajarishdan ko'ra yozish osonroq deganlaridek, qonunni ishlab chiqqan va ma'qullaganlarning o'zi bloklangan tarmoqlarda faol ekanligini qanday tushunish mumkin? Qonunlar aylanib o'tish uchun qabul qilinganmi yoki?

BMTning 2016-yil 5-iyuldagi rezolyutsiyalarida internetdan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, Internetning "ochiq, ishonchli va xavfsiz"ligini ta'minlash masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Finlandiya, Estoniya, Ispaniya singari davlatlarda zamonaviy axborot texnologiyalaridan erkin foydalanish davlat tomonidan kafolatlanishi belgilangan. Fransiya Konstitusiyaviy kengashi 2009-yil internet va axborotdan foydalanishni inson huquqlarining ajralmas qismi sifatida e'tirof etgan.

Biz esa 2022-yilda yashayapmiz. Bizda istalgan payt ijtimoiy tarmoqlar bloklanib qolishi, istalgan payt blokdan ochilishi mumkin.

Shahruza SATTOROVA

Tashabbus

“KITOBINGIZ BORMI? KITOB BERAMIZ”

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining Farg'ona viloyati bo'limi, Yoshlar ishlari agentligining Farg'ona viloyati boshqarmasi, Yoshlar ittifoqining viloyat kengashi hamda Ahmad Farg'oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxonalar markazi hamkorligida kitobxonlik targ'iboti doirasida yangi "Kitobingiz bormi? Kitob beramiz" loyihasi tashkil etildi.

Aholi o'rtasida kitobga mehr uyg'otish, kitobxonlikni ommalashtirish va kitobsevarlarni rag'batlantirishni ko'zda tutgan mazkur loyiha Farg'ona shahridagi aholi gavjum joylar, istirohat bog'i va serqatnov ko'chalarda o'tkazildi. Shartga ko'ra, istalgan piyoda o'zi bilan olib ketayotgan yoki mutolaa qilayotgan biror kitobni ko'rsatadi va unga yangi sara adabiyotlar sovg'a sifatida taqdim qilinadi.

Ertalardan choshgohgacha davom etgan ma'rifiy tadbir shuni ko'rsatdiki, xalqimiz orasida mutolani odatiy mashg'ulotga aylantirgan, sevimli asarini o'qish uchun yonida olib yuradigan va ziyo maskanlaridan sara adabiyotlar xarid qilayotganlar ko'pchilikni tashkil qiladi. "Kitobi bor"lar mamnuniyat bilan yangi asarlarni qabul qilib olishlari barchaga manzur bo'ldi. Kun davomida 50 dan ziyod badiiy kitoblar o'z egasini topdi. Mazkur loyihani viloyatimizning boshqa shahar-tumanlarida ham o'tkazish rejalashtirilmoqda.

Mahmudjon OLIMOV,
yoshlar faoli



177 IMKONIYAT



“KELAJAK BUNYODKORI” MEDALI BILAN KIMLAR TAQDIRLANADI

"Kelajak bunyodkori" medalini ta'sis etish to'g'risida"gi qonunga muvofiq, "Kelajak bunyodkori" medali bilan vatanparvarlik, fidoyilik va mehnatsevarlik fazilatlarini namoyon etib, xalq manfaatlarini uchun sadoqat bilan xizmat qilayotgan, Vatanimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yuksaltirishga va shon-shuhratini oshirishga munosib hissa qo'shayotgan, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida faolligi va tashabbuskorligi bilan tengdoshlariga o'mak bo'layotgan, shuningdek, o'qishda va mehnat faoliyatida katta yutuqlarga erishgan yoshlar taqdirlanadi.

"Kelajak bunyodkori" medali sovrindorlariga bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari miqdorida bir yo'la to'lanadigan pul mukofoti beriladi.

Imtiyozni taqdim etish tartibi va muddatlari:

O'zbekiston Respublikasining Prezidentiga davlat mukofotlari bilan taqdirlashga doir taqdimnoma Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi spikeri, Oliy Majlis Senati raisi, Vazirlar Mahkamasi, Konstitusiyaviy sud raisi, Oliy sud raisi, bosh prokuror, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashining raisi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari, vazirliklar, idoralar va jamoat birlashmalari respublika organlarining rahbarlari tomonidan kiritiladi. Chet el fuqarolarini taqdirlashga doir taqdimnoma O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi bilan kelishilgan holda kiritiladi.

IMKON BERAYOTGAN "DAFTAR"

Iqbol PARDAYEVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

"Yoshlar daftari"ni mahallalardagi yoshlar yetakchilarining o'z vazifalarini bajarishida, yoshlarga ko'mak berishida, ularning muammolariga yechim topishda chin ma'nodagi imkoniyatlar daftari deya olamiz. Shu kunga qadar o'z bag'riga minglab yoshlarni olgan daftardan hali hech bir yosh norizo chiqib ketmadi.

Surxondaryo viloyatida ham mahalladagi yoshlar yetakchilarining eng yaqin ko'makdoshi, shubhasiz, "Yoshlar daftari"dir. **Qumqo'rg'on tumanidagi "Elobod" mahallasi yetakchisi Abduxoliq Omonov** ham yoshlarga imtiyozli kreditlar ajratish, kontrakt pulini to'lash, yer ajratish, boringi, har bir ishda "Yoshlar daftari" asosida yordam berib kelmoqda.

Mahalla yoshlaridan biri Go'zal Ismatova 25 yoshda. Mahallaga kelin bo'lib kelishdan avval ota uyida gulchilik bilan shug'ullangani sabab bu borada yaxshi tajriba egasi. Go'zal ancha vaqtdan buyon ishsizligi bois yaqinda mahallasidagi yoshlar yetakchisi Abduxoliq Omonovga murojaat qilib, ishlash istagini bildirgan edi.



Go'zal ISMATOVA,
Qumqo'rg'on tumanidagi "Elobod" mahallasi fuqarosi:

– O'zim "Jiydali" mahallasida tug'ilganman. Yoshligimdan gul parvarishiga qiziqaman. Mahallamizga yoshlar yetakchisi tayinlangandan keyin hamma qatori men ham ishlash niyatim borligini aytdim. Anchadan buyon issiqxona qurib, gul yetishtirishni orzu qilishimni, ammo buning uchun mablag'imiz yetishmayotganini tushuntirdim. Mahallamiz yetakchisi avval puxta reja tuzishimga yordam berdi. Keyin mahallamizdagi hokim yordamchisi bilan menga kredit ajratib berishga kirishdi.

Avvalo, meni "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga olishdi. Oradan ko'p o'tmay biznesimni yo'lga qo'yishim uchun 30 million so'm kredit ajratib berishdi. Hozirgi kunga qadar issiqxonada atirgul g'unchalari yetishtirib, 10 million so'm foyda olishga ulgurdim. Endi esa bu sohani puxta

organib, boshqa yoshlarga ham o'rgatish niyatim bor.

Go'zal gulchilikdan topgan daromadiga o'z yashash uyini yangitdan ko'tarishni niyat qilgan. Balki, uyni qaytadan tiklash ayol kishining ishimidi, dersiz. Bu sizga g'alati tuyilishi ham mumkin. Ammo Surxondaryo qizlari hamma ishni uddalay oladi. Hatto dehqonchilikni ham. Navbatdagi qahramonimiz bilan tanishib bunga amin bo'ldik.

Bandixon tumanidagi "Paxtakor" mahallasida yashovchi Zilola Shapoatova 27 yoshda. U dehqon oilasida tug'ilib voyaga yetgan. Bu sohaning past-balandini yaxshi biladi. Shu boisdan mahallasidagi yoshlar yetakchisiga hech ikkilanmay dehqonchilik qilish niyatini bildirdi. Zilola oilada katta farzandligi, ota-onasining ishga yaramay qolganlari bois hozir xonadonning asosiy boquvchisi.

Zilola SHAPOATOVA,
Bandixon tumanidagi "Paxtakor" mahallasi fuqarosi:



HOZIRGI KUNGA QADAR ISSIQXONADA ATIRGUL G'UNCHALARI YETISHTIRIB, 10 MILLION SO'M FOYDA Olishga ulgurdim.

– Shu yilning mart oyida mahallamiz yoshlar yetakchisi Muhriddin Eshqulov bilan uchrashib, dehqonchilik qilish niyatim borligini aytdim. Shundan so'ng yoshlar yetakchisi va hokim yordamchilari meni "Yoshlar daftari"ga ro'yxatga olib, 10 yil muddatga "Mirkomil Pardayev" fermer xo'jaligidan 50 sotix yer ajratib berishdi. Hattoki auksion xarajatlarim ham to'liq qoplab berildi. Keyin men Rossiya davlatiga ishlash uchun ketgan ukam G'ayratni chaqirib oldim. Birgalikda dehqonchilik qilishga kirishdik. Yerga qovun urug'ini qadadik. Shukrki, mehnatimiz samara berib, birinchi hosilni yig'ib olib, sotishga ham ulgurdik.

Zilola va oila a'zolarining uch oy qilgan mehnatlari o'z samarasini berdi. Hozirgacha 15 million so'm daromad olgan yoshlar hali hosilning qolgan qismidan yana 10 million foyda olishni reja qilgan.

Surxondaryolik yana bir qiz "Yoshlar daftari" sabab o'z biznesini yo'lga qo'ydi. Qandolatchilik borasida uquvi bor bo'lgan Nigora Qulsoatova kun kelib qandolatchilik sexini yo'lga qo'yishi mumkinligini tasavvur qilmagan edi.

Viloyatning barcha tumanlarida kichik biznes egalari va tadbirkorlarning safi kundan kunga kengaymoqda. Ular orasida yosh qizlarning ko'pligi yana ham quvonarli. Bularning barchasiga "Yoshlar daftari" sabab bo'lmoqda. Hali bu daftardan millionlab yoshlar o'z yo'lini topishi shubhasiz. Biz esa ular bilan tanishtirishdan charchamaymiz.



Nigora QULSOATOVA,
Qiziriq tumanidagi "Rabotak" mahallasi fuqarosi:

– Yoshim 24 da. Oilamiz daromadiga o'z hissamni qo'shmoqchi bo'lib, mahallamiz yoshlar yetakchisi Akbar Boboqulovga tadbirkorlik qilish istagim borligini aytdim. Akbar aka ham meni qo'llab-quvvatlashini, ishlayman degan yoshdan yordamini ayamasligini aytdi. Murojaat qilganimdan so'ng meni "Yoshlar daftari"ga kiritib, hokim yordamchisi bilan hamkorlikda 33 million so'm kredit ajratdi. Bu pulga zarur uskunalami xarid qildim va qandolatchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish sexini ochdim. Hozir yonimga ikkita qizni ishga olib, ularni ham ish bilan ta'minladim. Tumanimizdagi bir qator savdo do'konlariga qandolatchilik mahsulotlarini yetkazib beryapmiz. Daromadimiz ham juda yaxshi.

FURQAT KULOLOV



Jismoniy nuqsonlar odamning faol, to'la-to'kis hayot kechirishiga, maqsadlarga erishishiga, yaratishiga, muvaffaqiyatli bo'lishiga to'sqinlik qila olmaydi, degan fikrlarini ilgari surgan do'stimiz Furqatbek Quranboyev Xorazm kulolchilik markazida faoliyat olib boradi. U 2002-yilda Xorazm viloyatining Yangiariq tumanida tug'ilgan. Otasi usta, onasi uy bekasi. Bu oddiy oiladan Furqatbek kabi iste'dodning yetishib chiqishi quvonarli holat, desak hech mulolag'a bo'lmaydi.

Qahramonimizda tug'ma hujayralar yemirilishi kasalligi aniqlangan. Bu esa, albatta, insonning jismoniy imkoniyatlarini cheklaydi. Ammo Furqatbek 5 yildan buyon kulolchilik va paypoq to'qish bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga, badiiy ijodning nazm va nasr yo'nalishlarida ham ijod qiladi.

Kulolchilik va to'quvchilikni o'rganish insondan kuchli sabrni talab qiladi. Tengdoshimiz maktab ta'limini uyda olgani uchun bo'sh vaqtlarida bu hunardan turli narsalar yasab nafaqat o'zining, balki oilasining ham moliyaviy holatini yaxshilashga yordam beradi. Furqatbekda shijoatga qo'shimcha tarzda kuchli xohish ham bor. Ustozi Iroda Sa'dullayeva ham uning ilk bor kulolchilikni o'rganaman deb kelgan paytlarini esladi.

– Bilasiz, ustoz bo'lish juda qiyin, – deydi Iroda Sa'dullayeva, – ayniqsa, biror hunarni o'rgatish. Furqatbek ilk bor yonimga kelganda qanday o'rgatar ekanman, degan savol xayolimdan bir zumga o'tgan, ammo vaqt o'tgan sayin bir narsada yo'l-yo'riq ko'rsatsa, qolganini o'zi tez ilib ketadigan bola ekanini tushundim.

Ba'zan "ustoz, mening narsalarimni sot-mang, asrab qo'ying", deydi. Ich-ichimdan ezilaman. Ba'zan esa sog'lig'i joyida bo'lsa ham, tayyor imkoniyatlaridan foydalana olmaydigan yoshlarni ko'rsam, shu shogirdimni o'mak qilib ko'rsatgim keladi.

Furqatbek idishlarga arab imlosida turli hadislarni ham bitadi. Bu esa, shubhasiz, xattotlik sohasiga ham qiziqishning boshlanishidir. Qahramonimizning arab tiliga qiziqishi inobatga olinib, Yoshlar ishlari agentligi Xorazm viloyati boshqarmasi boshlig'i Sardorbek Polvonov "Booknomy" kitobini hadya qildi. Arab tilini o'rganish qiyin, deymiz. Ammo xohish bo'lsa, imkon topiladi.

“

FURQATBEK IDISHLARGA ARAB IMLOSIDA TURLI HADISLARNI HAM BITADI. BU ESA, SHUBHASIZ, XATTOTLIK SOHASIGA HAM QIZIQISHNING BOSHLANISHIDIR.

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan "Cheksiz ijod – cheksiz imkon" kitobidan Furqatbekning nasr yo'nalishidagi aytizimga chalingan bolalar hayoti haqida yozilgan "Jannat gul-lari" hikoyasi o'r in oldi. Furqatbekning Yoshlar ishlari agentligiga elektron aravacha so'rab qilgan murojaati ham inobatga olinib, Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa'dullayev tomonidan berilgan hadya o'z egasiga topshirildi.

Mashhura NASRIDINOVA,
"Yoshlar ovozi" muxbiri

G'OLIBLAR ANIQLANDI



Sirdaryo viloyatida 16-30 yoshgacha bo'lgan yoshlar o'rtasida mini-futbol va futbol bo'yicha "Davlat xavfsizligi xizmati raisi kubogi" musobaqalari yakunlandi.

Joriy yilning aprel oyida start berilgan musobaqalarda viloyatdagi 236 ta mahalla jamoalari sektor, tuman (shahar), viloyat bosqichida o'zaro bellashdi. "Yangiyer markaziy o'yingohi"da o'tkazilgan viloyat bosqichi yakuniga ko'ra, mini-futbol bahslarida 1-o'rinni Sirdaryo tumanining "Yangiobod" mahallasi, 2-o'rinni Shirin shahrining Mirzo Ulug'bek mahallasi, 3-o'rinni Sayxunobod tumanining "Paymard" mahallasi jamoasi egallagan bo'lsa, futbol bahslarida 1-o'rin Mirzaobod tumanining "Bog'iston" mahallasi-ga, 2-o'rin Guliston tumanining "Ibrat" mahallasiga, 3-o'rin Oqoltin tumanining "Yangi hayot" mahallasiga nasib etdi.

Anvar TO'YCHIYEV,

Yoshlar ishlari agentligining Sirdaryo viloyati boshqarmasi axborot va media xizmati bo'yicha mutaxassisi

"WIKIOROMGOH"GA START BERAMIZ!



Bir hafta davom etadigan mazkur oromgohda ishtirokchilar Vikipediya administratorlari tomonidan mahorat darslari, tanqili ijodkorlar, bloggerlar, ishbilamnonlar bilan uchrashuvlar va boshqa qiziqarli mashg'ulotlarda qatnashish imkoniga ega bo'ladi.

"WikiOromgoh"da 19-iyul soat 00:00 dan 26-iyul soat 00:00 ga qadar Vikipediya kamida 10 ta sifatli maqola joylagan ishtirokchilar qatnasha oladi. Eng muhimi esa yosh chegaralanmagan! Maqolalar ensiklopedik ahamiyatga ega va Vikipediya qonun-qoidalariga mos tarzda yaratilishi kerak.

Anketada foydalanuvchi sahifasining havolasini kiritmagan va notebook yo'q, deb belgilagan ishtirokchilar saralashda qatnasha olmaydi. Batafsil ma'lumotni @wikistipendiya telegram kanalidan olishingiz mumkin.

@alisher_sadullaev
telegram kanalidan olindi



O'QISHGA KIRSANGIZ NIMA BO'LADI?

Gazetamizning avvalgi sonlarida abituriyentlarga to'g'ri yo'nalish va motivatsiya berish maqsadida bo'lajak talabalarni qo'llab-quvvatlash ruhidagi maqolalar turkumini taqdim etib ke- layotgan edik.

Ko'pchilik yoshlarning qizi- qishiga sabab bo'lgan "O'qish- ga kira olmasangiz nima bo'ladi?" sarlavhali maqola- ning mantiqiy davomi sifatida, qolaversa, talabalikka erish- ganidan so'ng o'z oldiga yan- gi maqsadlar qo'yish, rejalar tuzishni o'ylab ikkilanayotgan abituriyentlarimiz uchun foy- dali bir nechta yo'llarni sana- moqchimiz. Albatta, qanday tanlov qilish o'zingizga bog'liq!


"Maqsadimga erishdim, ta- laba bo'ldim, endi o'qish kerak emas". Bu ko'pincha kelajakda bakalavr diplomini "bir tiyinga qimmat match" ekanini ta'kid- lab charchamaydigan, atrof- dagilarning ham ilmga intilishini befoyda deb hisoblaydigan oliy ma'lumotli dangasa talabalar- ning shioridan boshqa narsa emas!

Siz, aziz abituriyentlar esa, o'z- ingizda hozirdanoq to'g'ri yo'na- lish, intellektni shakllantirib bor- shingiz zarur. Igna bilan quduq qazishga qiyos etilgan ilm olish mashaqqatlidir, ammo meva- si shirin. O'ylab ko'ring, umrin- gizing istalgan vaqtida do'stlar bilan uchrashib, o'yin-kulgi qil- shingiz mumkindir, ammo sizga o'qish, izlanish, o'z ustida tinim- siz ishlash uchun berilgan "oltin davr" –talabalik hech qachon qaytib kelmaydi. Modomiki, qiyin sinovlardan chekinmay, matonat va bilim bilan o'ta olibsizmi, yana bir nechta yilni sohangizning yet- tuk mutaxassisi bo'lish uchun ajrata olasiz!

"OTA-ONAMGA OG'IRLIGIM TUSHISHINI ISTAMAYMAN..."

Agar sizda shunday xavotir bo'lsa, bu qisman yaxshi va shu bilan birga foydasiz! Avvalo, ya- qinlaringizni moddiy va ma'naviy tomondan qiyinlashlariga sabab bo'lmaslik uchun hozirdan yo'l izlay boshlaganingiz yaxshi. Ke- ling, bu yo'llarni birgalikda izlay- miz!

Talabalik faqat chiroyli, ozoda kiyinish, o'qishga borib-ke- lishdan iborat emas. Ayniqsa, ijara uchun to'lov qilish, kontrakt shartnomas- ining ma'lum qismini o'z mehnat haqqingizdan to'lash haqida o'ylay boshlaganingizda buni yaxshiroq tushunasiz.



Ziyoda RAHIMBOYEVA.

KONTRAKT TO'LASH ENDI MUAMMO EMAS

"Imkon", "Matsenat.uz", "Tala- barga madad" – millat yoshlari- ning ziyoli, o'z kelajagiga ishonch bilan qaraydigan shaxslarga aylanishi uchun ta'lim olishni qo'llab-quvvatlovchi bir nech- ta tashkilotlar, shu bilan birga, Yoshlar ishlari agentligi tomoni- dan yo'lga qo'yilib, o'tkazib ke- linayotgan ushbu loyihalar shu kungacha kontrakt shartnomas- ini to'lashda qiyinlangan yoshlar uchun zo'r imkoniyat bo'ldi. Ilm olishga ishtiyoqning bormi? Seni har tomonlama qo'llab-quvvat- lovchilar ko'p, faqat maqsadlar- ning sari intilishdan to'xtab qol- masang kifoya!

Ushbu loyihalarda qanday ishtirok etish va buning tartibi haqida to'liq ma'lumotni tashkilot- larning telegram kanali, ijtimoiy tarmoqdagi sahifalari yoki shun- chaki "google" qidiruv tizimi orqali topishingiz mumkin.

“
ENDI TALABALARNING ISHLASHI, AYNIQSA, O'ZI TAHSIL OLAYOTGAN SOHA MUTAXASSISI BO'LIB YETISHISHI UCHUN KATTA IMKONIYAT YARATILDI.

ISHLAYMIZMI?!

Joriy yilning 4-mart sanasida Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan videoselektor yig'ilishda bundan buyon barcha davlat tashkilotlari va muassasalarida talabalarining ishlashiga rux- sat berilishini ma'lum qilingandi. Markaziy bank tajribasi asosida Iqtisodiyot, Moliya, Qurilish, Energetika, Qishloq va Suv xo'jaligi vazirliklari, soliq, kadastr idoralari 3-4 kurs talabalarini haq to'lanadigan stajirovkaga jalb qilib, amaliyot yakunida ularga doimiy ish taklif qilinishi belgi- landi.

Bundan ko'rinib turibdiki, endi talabalar- ning ishlashi, ayniqsa, o'zi tahsil olayotgan soha mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun katta imkoniyat yaratildi. Shu bilan birga, talabalar uchun ish topishda maxsus e'lon- lar taqdim etib boriladigan telegram tar- mog'idagi turli kanal va guruhrar, rasmiy saytlarni kuzatish orqali ham imkoniyatingiz- ga mos ish o'rniga ega bo'lishingiz mumkin!

BU YO'NALISHDA O'QIGIM KELMAYAPTI...

Agar talabalikka qabul qilinganingizdan so'ng sharoit taqozosi bilan (aytaylik, oilaviy boshqa shaharga ko'chish, ya- qinlaridan birining og'ir betobligi yoki turmush qurish) o'qish joyi sizga muammo tug'dirayotgan bo'lsa, "o'qishni ko'chirish" tizimi orqali hal etishingiz mumkin. Bu tizimdan boshqa sabab- lar bilan ham foydalanish mumkin. Masalan, tanlagan yo'na- lishingiz sizda katta qiziqish uyg'otmayotgan, oliygohdagi ta'lim tizimi va dars berish metodikasi sizni qoniqtirmayotgan bo'lsa. OTMning o'quv bo'limi yoki vazirlikning rasmiy veb-sayti www.edu.uz orqali o'qishni ko'chirish bo'yicha batafsil ma'l- umotga ega bo'lishingiz mumkin!

Oldinda sizni oltin davrning mashaqqatli, unutilmas va eng shirin damlari kutmoqda. Maqsadlaringiz yo'lidan hech qachon chalg'imasligingiz va talabalik baxtiga erishishingiz- da tilakdoshmiz!

G'oliblar

BIZNI PISAND QILISHMAGANDI



Sirdaryo viloyatida "Quvnoqlar va zukkolar" ko'rik-tanlovi targ'ib qilish va o'tkazish menga biriktirilgan. Shu kunga qadar ko'plab loyihalarni tashkil qilganman, ammo "QVZ" men uchun yangilik edi.

Hududiy bosqichlarda biz bilgan va bilmagan qobiliyatlarini kashf qildik. Natijada viloyat bosqichi yakunida Guliston tumani "Ahillik" mahallasining "Ahillik" jamoasi g'olib bo'lib, respublika bosqichida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shundan so'ng bor e'tiborimizni mintaqa va respublika bosqichiga qaratdik.

Mintaqa bosqichida 1-o'rinni egallab, finalga yo'l ol- dik. Biroq poytaxtda – "Xalqlar do'stligi" saroyida o'tka- zilgan final bosqichida boshqa jamoalar bizning "Ahillik" jamoamizga past nazar tashlab, ustimizdan kulish- di ham. Ammo bolalar bunga e'tibor bermay, finalda "ko'rsatib qo'yish" maqsadida harakat qildi. Imkonsiz narsaning o'zi yo'q, shunchaki mehnat kerak. Sahnaga chiqish, gapni to'g'ri yetkazib bera olish, aytishga oson bo'lishi mumkin, lekin katta hayajon ostida buni udda- lash mushkul.

Uch shartni yakunlashimiz bilan ko'zim to'la yosh edi, sababi g'alaba emas, balki jamoamizning mehnati munosib baholanishidir. Yakunda g'alaba Sirdaryo viloyatining "Ahillik" jamoasiga nasib etdi. Bu paytdagi holatni tasvirlab bera olmayman. "QVZ" tari- xiga bizning jamoa ham kiritildi. Bolalarning ko'zidagi quvonch, o'zlariga bo'lgan ishonchning oshishi, ota- onalar shodligi barcha qiyinchiliklarni "yuvib ketdi".

Ayni paytda hamma o'z ishiga qaytgan. Ammo kel- gusi mavsumda ishtirok etish ishtiyoqi bor. Axir g'ala- bani himoya qilish kerak-da!

Nigora ORIFJONOVA,

"Ahillik" jamoasi sardori, viloyat "QVZ" koordinatori

“HALAKAGA KALAKA”

YOXUD O‘ZBEK TILINING MAVQEYI QISHLOQDA BALANDROQ

O‘zbek tilining mavqeiy qishloq joylarda rostdan ham baland. Ana, istalgan viloyatning o‘zbeklar yashovchi chekka bir qishlog‘iga borib, odamlar bilan boshqa ajnabiy tilda gaplashib ko‘ring, mehmon tutib, izzat qilsalar ham, baribir yaqindan yiroq olib, yot maqomda ko‘rishadi. O‘zbekchada ikki og‘iz salom-alik, hol-ahvol so‘rashgan kishingiz bilan esa ming yillik oshnadek suhbat qurishingiz mumkin.

Ha, qishloqlarda o‘zbek tili gullab-gurkirayapti. Falon qishloqdan yangi kelin tushirib kelishsa, ikki xil lahja aralashib ham yana bitta shiringina sheva tayyor-da! Ammo biror shahri azimga, ayniqsa, muaz-zam Toshkentga kelsangiz bormi... E yo‘q, o‘zbek tili bilan bu yerlarda sizga non ham, nom ham tegmaydi. Bu yerda jadid bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Ikki emas, to‘rt til lozim” degan maqolasining nomi amal qiladi. Ya‘ni- kim, avvalo rus, so‘ngra ingliz, keyin yana biror ikki yoki uch tilni bilsangizgina oson yashab ketasiz. Hatto oliy adabiyot kursi tinglovchisi bo‘lish istagidagi kelgusi magistrantdan ham bosh bir tildan bilish darajasi talab etilganidan keyin...

Qaysi burchakka bosh suqmang, mana biz, deya til markazlari uchtadan-to‘rttadan bo‘lib bosh ko‘rsatib turadi. Nomlari ham bir ajabtovurki, alifbodagi harflar yetmay qolib, yana ikki-uch harf-u belgi qo‘shib o‘qishga majbur bo‘lasan. Ularni jo‘ngina o‘qib bo‘lganda ham mayli edi, har birini o‘qish uchun tahorati singan namoz-xondek qayta boshdan tayyorgarlik ko‘rish, jag‘ingni kerib, labingning ikki uchini qulog‘ingga tegar darajada cho‘zib ko‘rishing, tilingni juvozning eshagidek tanglay-tomoq yo‘nalishida gir aylantirib kelishing kerak. Ana undan keyin haligi qurg‘ur “Inter nation school”, “My school”, “Cambridge Learning Centre”, “Thompson School” deganlarining nomini bahuzur talaffuz qilaverasan.

Biroq kamina bundan ham arzonroq, deyarli tekin bir til o‘rganish usulini topdim. Ingliz tilini



“
BUNDOQ O‘YLAB QARASAM,
BU BIZ SURIB SUROLMAYOTGAN,
SUYIB SUYOLMAYOTGAN TIL
MASALASI HAM SHUNDAY,
“HALAKAGA KALAKA”
BO‘LIB YOTIBDI.

o‘rganishim kerakmi, marhamat – ko‘chalar bo‘ylab yurib, peshlavhalardagi nomlarni bir-bir o‘qiman-u ichiga kirar-chiqar odamlariga qarab, ma‘nosini xulosalab olaveraman. Misol uchun, bir joyda “Beauty” degan so‘zga ko‘zim tushdi. Oynavand eshikdan mundaq qarasam, hur-u parilar ichkarida yo‘qdan yo‘ndirib, stulga uzala tushgan “yarimtayyor xomash-yo‘lardan o‘zlaridek-o‘zlaridan ziyod hurliqolarni yaratib turishibdi. Bu yer go‘zallik saloni bo‘lsa, demak anavi so‘z ham “go‘zallik” bo‘ladi-da, albatta. Demak, yangi so‘zni o‘zlashtirildi.

Agar, “yo‘q, rus tilini o‘rganishim kerak” desangiz, bunisi ikki hissa qulay, ham yengil. Qanday deysizmi? Biror joyga ishga kirish uchun ariza berib ko‘ring. Ana o‘shanda kirishdan avvalgi suhbat jarayonlarida o‘zlari sizga rus tilida nafaqat o‘qish, tinglab tushunish, gapirish, yozish kabi ko‘nikmalarni ham o‘zlashtirishingizga ko‘maklashadi. Sizdan esa bor-yo‘gi chidamli

asablar va o‘n-o‘n besh joyga ishga kirish haqida ariza topshirish talab etiladi, xolos.

Lekin bu masalaning ham bitta tomoni bor. Gap shundaki, biz rus tilini shu qadar mahalliy iste‘mol tili sifatida qabul qildikki, bugun uning xorijiy tili sifatida qiymati yo‘qoldi. O‘zbek tilini yaxshi bilmaslik hech narsa emas, ammo rus tilini bilish “boqsa bo‘ladigan” odam ekanligingizni anglatar darajaga yetdik. Avvallari faqatgina norasmiy tarzda bu tilga davlat tili darajasidagi kabi muomalada bo‘lgan bo‘lsak, endilikda uni rasmiy darajada “o‘z tilimiz” qilib oldik.

Bu gaplarni havodan olib gapirmayapman. Shunchaki, yurtimiz oliy ta‘lim muassasalaridagi magistratura bosqichiga qabul jarayonida o‘zbek tili kabi, rus tilining ham “xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro sertifikatlar” safida yo‘q ekani, ozgina tafakkur qudratiga ega ong uchun, bu tilning qaysi mavqega chiqib (tushib) turganini ko‘rsatayapti. Axir ro‘yxatning boshiga katta qilib “Milliy sertifikat” deb yozib qo‘yilgan. Davlat test markazi tomonidan ma‘lum bir fan bo‘yicha bilim-ko‘nikmalarni baholashga qaratilgan sinovlar yakuni bo‘yicha beriladigan bu sertifikatning B2, C1, C2 darajalari ingliz, ispan, fransuz, italyan, arab, xitoy, koreys, yapon, hatto biz bilan bir til sinfidagi turk tili uchun ham berilar ekan-u, rus tili bundan mustasno bo‘lsa.

Nahotki 1995-yilning 21-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni eskirgan, uning birinchi moddasida keltirilgan “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir” degan qoida bekor qilingan bo‘lsa? Ehtimol. Axir oradan oz emas, ko‘p emas, 26 yildan ziyod vaqt o‘tdi. Yuz ellik yil qonimizga zahar bo‘lib quyilgan, millat sifatida ham “men”imizni ikkiga rus bo‘lgan rus tilining masalasini bir yoqlik qilish fursati yetdi, menimcha.

Men tug‘ilgan qishloqda “halakaga kalaka”, degan o‘xshatish bor. Bir ishning epini keltirolmay, na bitirib, na tashlab qo‘yadigan kishilarga aytiladi. Bundaq o‘ylab qarasam, bu biz surib surolmayotgan, suyib suyolmayotgan til masalasi ham shunday, “Halakaga kalaka” bo‘lib yotibdi. Mas‘ullar hech mas‘uliyat sezib, o‘zbek tilining mavqeyini tiklash, rus tilini ham endi “yotlashtirish” choralarini ko‘rarmikan?! Yoki “quruq qonun” yana yillab qonimizni zaharlashda davom etaveradimi?

Kamoliddin AZZAM.

A KOMPANIYA

TIL BILIMI

Biz ayrim hollarda paronimlar bilan bog‘liq xatolarga yo‘l qo‘yib turamiz. Masalan, kompaniya va kampaniya so‘zlari garchi bir-biriga o‘xshasa-da, aslida ular o‘rtasida farq mavjud.

Kompaniya – vaqtini birga o‘tkazuvchi yoki biror maqsad bilan uyushgan shaxslar guruhi. Savdo, sanoat yoki transport sohasida iqtisodiy faoliyat olib boruvchi yuridik va jismoniy shaxslar jamoasi. Masalan, savdo

kompaniyasi, aksiyadorlik kompaniyasi. (“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan).

Kampaniya – muhim ijtimoiy, siyosiy yoki xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan biror vazifani bajarish uchun ma‘lum bir davrada safarbarlik yo‘li bilan o‘tkaziladigan ishlar, ko‘riladigan tadbir-choralar tizimi. Masalan, saylov kompaniyasi, ko‘chat ekish kompaniyasi. (“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan).

Sardor SA‘DULLAYEV tayyorladi

ISHLAYDIGAN MIYALAR BOR EKAN

Kundalik ish taqozosiga ko‘ra bir tadbirdan keyin qatnashchilarning taassuroti haqida intervyu olib, maqola tayyorlash kerak bo‘ldi. Tadbirning qisqacha mazmuni shunday: turli yo‘nalishlarda pavilyonlar tashkil etilgan, ularning ishi ommaga ko‘rsatilgan edi.

Bu yerda e‘tibor qaratish kerak bo‘lgan bir so‘z bor edi: pavilyon. Aksiga olib hamma pavilyon degani degan edi. Birorta joyda o‘zbekcha muqobilini ko‘rmadim.

Xullas, yosh ijodkor Javlon Jovliyevdan intervyu oladigan bo‘ldim. Ularning pavilyoni “Kitobxonlar pavilyoni” edi. Lekin bu so‘z taniqli munaqqid Bahodir Karim boshliq ziyolilarga ma‘qul kelmaydi. Ular pavilyon-mavilyon deb o‘tirmay, “Kitobxonlar ko‘shki” deb qo‘ya qolishadi.

Shu gapni Javlondan eshitib, balli-ye, ishlaydigan miyalar ham bor ekan-ku, deb yengil tortdim.



Xayriddin MUROD

“BIZNING YOSH IJODKORLAR”

LOYIHAMIZNING BUGUNGI SONINI YURTIMIZDA QADIMDAN MASHHUR BO'LGAN, HOZIRGA KELIB O'ZINING TARAQQIYIGA ERISHGAN SAN'AT – KULOLCHILIKKA BAG'ISHLAYMIZ. KULOLCHILIK YO'NALISHIDA O'Z ASARLARI BILAN AJRALIB TURUVCHI, YOSH BO'LISHIGA QARAMASDAN YUKSAK MAHORATGA EGA BO'LGAN IJODKORLARDAN BIRI **MUHAMMADSOLIH LATIFJANOVDIR.**



Loyiha muallifi:
Shahribonu RAHMATOVA



Muhammadsolihi Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn instituti-ning Badiiy kulolchilik yo'nalishini tamomlamoqda. 2015-yil "Ishbilarmon talaba stipendiya-si uchun" tanlovining respublika bosqichida faxrli 1-o'rin sohibi bo'lgan va stipendiant yoshlardan biriga aylangan. 2016-yilda "Mening biznes g'oyam" tanlovining respublika bosqichida 1-o'rinni egallagan.

Joriy yilda "Inson qadri-ni ulug'lash va faol mahalla yili" Davlat dasturi doirasida O'zbekiston Badiiy akademiyasi va Badiiy ijodkorlar uyushmasi hamkorligida o'tkazilgan "Tasviriy va amaliy san'at" festivalida kulolchilik asarlari bilan ishtirok etib, xalqaro darajadagi "Oltin medal" bilan taqdirlandi.

Hozirgi kunda "Aaron" akademiyasida kulolchilik bo'yicha bosh mutaxassis sifatida ish olib bormoqda. Undan tashqari, poytaxtimizning "Navro'z" bog'ida noan'anaviy kulolchilik bo'yicha mahorat darslarini berib kelmoqda. 2021-yili Yoshlar kuni munosabati bilan o'tkazilgan Yoshlar forumida ishtirok etganida muhtaram Prezidentimiz bilan yuzma-yuz uchrashib, noan'anaviy kulolchilikni yurtimizda rivojlantirib, ishsiz yoshlarni ish bilan ta'minlash, bundan tashqari, imkoniyati cheklangan yoshlarga hunar o'rgatishni o'z oldiga maqsad qilganini ta'kidlagan edi. Ayni vaqtda Noan'anaviy kulolchilik markazi ochish, yurtimizning turistik salohiyatini oshirish, milliy amaliy san'at va badiiy hunarmandchilik mahsulotlarini jahonga namoyon etishni maqsad qilgan.



YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:
Sardor SA'DULLAYEV

Musahihlar:
Rashid XO'JAMOV,
Qirmizoy HAKIMOVA

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi "Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 1F-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida tanli va sahil-landi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 236-79-95.

"Sharq" nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosma-xonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma taboq. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekstar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-755, Adadi – 10598. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6